

## **TOPIC: THE ROLE OF NATIONAL, SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN CHILDREN'S EDUCATION**

**Ergashova Oyjamol**

(Lecturer at the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy)

**Nazira Abdiyeva,**

2nd year BTS student

Email: ergasheva-dtpi@umail.uz

Phone number: 98905221054

**Introduction:** From the first days of independence of Uzbekistan, universal values have been a priority of state policy, the main purpose of which is to realize identity, restore national values, unite our multinational people and acquire spiritual and moral qualities based on national universal values. lishdir. Today in our country, ample conditions are being created for the promotion of national and universal values. Emphasis is placed on their development and the upbringing of young people.

## **MAVZU: BOLA TARBIYASIDA MILLIY, MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR ROLI**

**Ergashova Oyjamol**

(Denov Tadbirkorlik va Pedagogika institute o'qituvchisi)

2-kurs BTS yo'nalish talabasi

**Abdiyeva Nazira**

Elektron po'chta: [ergasheva-dtpi@umail.uz](mailto:ergasheva-dtpi@umail.uz)

Telefon no'mir: 98905221054

### **Kirish**

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan oq umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblangan, uning asosiy maqsadi-o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish va milliy umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviy- ahloqiy fazilatlarga ega bo'lishdir. Bugungi kunda yurtimizda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga keng sharoitlar yaratilmoqda. Ularning rivojlanishiga va yoshlarni tarbiyasiga singdirishga e'tibor berilmoqda.

Xalqimiz orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqat, hurmat

kundan-kunga rivojlanib, mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-ahloqiy negizlarini mustaxkamlashning kuch qudrati manbaiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning istiqlolli va istiqbolini, buyuk kelajagini umumjahon sivilizatsiyasiga qo'shayotgan hissasini butun dunyo qadrlamoqda, tan olmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar faqatgina bizning Respublikamizdagina emas, balki butun jahonda bir butun, yaxlit holatda har bir inson qalbidan chuqur joy olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilishi yana bir bor milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqatning ifodasi bo'ldi. Umuminsoniy qadriyatlar faqatgina bizning Respublikamizdagina emas, balki butun jahonda bir butun, yaxlit holatda har bir inson qalbidan chuqur joy olmoqda.

Ta'lif-tarbiya jarayonida bola shaxsni har tomonlama ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat ta'lif standartlarida qadriyatlar haqidagi bilimlar, bugun ta'lif muddati mobaynida va uning hamma shakllarida berilishiga alohida ahamiyat berilgan. Shunday ekan, har bir yoshni ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotni o'qishga ishtiyoq uyg'otish, qo'shiq aytish, raqs tushish, rasm chizish malakalarini tarkib to'tirish, rangtasvirlar, musiqa asari, mehmorchilik, teatr to'g'risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlami ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda adabiyot darsi davr bilan hamnafas bo'lishi zarur. Adabiyot darsi o'z fani asoslarini o'rgatish bilan birga yoshlar uchun hayot darsiga aylanashi, ularni hayotga tayyorlashi lozim. Hayotni o'rganishda adabiyot yoshga eng yaqin yordamchi bo'lismiga erishish lozim. Yosh adabiyot fanida adabiy asarlarni o'rganish orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'limg'i lozim. Ota-onha va tarbiyachilar bolalarni to'g'ri o'sishlari, aqliy va axloqiy, ma'naviy, estetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Buning uchun asosan o'yinlar va ertaklar asosida axloqiy tarbiya berish mumkin, chunki bu yoshdagagi bolalar asosan o'yin faoliyatida bo'ladi, o'yinlarning rangbarang bo'lishi va jamiyatimiz maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etish juda muhim.

Bola shaxsining kamol o'sishida doimiy ravishda muhitning ta'siri sezilib turadi. Muhit - bu insonga tahsir etuvchi tashqi voqeа-hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridaagi uzluksiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqeа-hodisalar o'zining ijobiylar yoki salbiy ta'sirini o'tkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi o'zgarishlarga ota-onalar, tarbiyachi va

o'qituvchilar doimiy ravishda ehtiborli bo'lib, tashqi muhitning salbiy ta'sirini oldini olib, ijobiy ta'sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim. Yoshlarni ijtimoiy va yakka tartibdagi foydali mehnatga jalb qilish, mehnat o'rnlari bilan tahminlash, bu jarayonda yoshlarning qiziqishi, iste'dodi, manfaatiga ham e'tiborni kuchaytirish lozim; Shu nuqtai nazardan yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda quyidagi vositalardan foydalanish tarbiyaviy ishlarning samaradoriligini oshiradi:

1. Yoshlarda, ijtimoiy faoliik fazilatini oshirish, yoshlar harakatida ularni yetakchilik xususiyatlarini oshirish;
2. Milliy g'oya, milliy mafkurani yetarli darajada targ'ib va tashviq qilish. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda milliy g'oyaning, milliy mafkuraning asosiy tamoyillari hisoblanadi;
3. Yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda tabiiy-ilmiy bilimlarni keng targ'ib qilish;
4. Tanqid va o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil fikrlash yo'llarini kuchaytirish;
5. O'tmish merosimiz yutuqlari, mustaqillik adabiyoti, san'ati yutuqlarini keng targ'ib qilish;
6. Milliy an'analar, urf-odatlar ruhida tarbiyalashni kuchaytirish, ayni paytda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayangan holda g'oyaviy tarbiyani tashkil qilish zarur;
7. Yoshlar salohiyatini oshirish, ularning hayotda o'rnini tahminlash bilan bog'liq ishlarni kuchaytirish;
8. Yoshlarni yot, begona, zararli g'oyalardan asrash tadbirlarini, mafkuraviy immunitetni shakllantirishga intilish, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun tarbiyaviy ishning mavjud barcha usullari, shakllari, vositalaridan o'z o'rnida samarali foydalanish umumiyl maqsadlarmizni amalga oshirishda muhim o'rinn egallaydi.

## Xulosa

Yoshlami ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishda ularning yuzaga kelishi va rivojlanishini bilish xamda ularni tarbiya jarayonida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni shartli tarzda quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi:

1. Qadimgi qadriyatlar.
2. Islomgacha bo'lgan milliy-madaniy qadriyatları.
3. Islomiq qadriyatlar.

Bu qadriyatlar o'zida Qur'oni Karim, Xadisi Sharif, Tafsifchilik, Fikxshunoslik, tasavvufchilik asoslarini hamda islomiy obidalarni o'z ichiga oladi.

Bularni yoshlar tarbiyasida qo'llash pand-nasixatlar, mazmunli hikoyalar, namunali vokealar, ogoxlantiruvchi voqealar, obidalarga sayohatlar, allomalar hayotini yoritish, filmlar, islomiy yodgorliklarni asrab-avaylashni, bunga umumxalq milliy bayramlari (Navro'z) tadbirlari (xashar, ko'maklar), to'ylar (sunnat to'yi, nikox to'yi, uy to'yi, muchal to'yi), ma'rakalar (xatni qur'on, janoza) kabilar kiradi. Bular orqali yoshlar ma'nnaviy- axloqiy tarbiyasini shakllantirish ularni shu marosimlardagi ota-onalar nazoratidagi ishtirokida va kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Bolani ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish, vatanparvarlik, jamoatchilik, erk, ozodlik, adolatparvarlik, mardlik, do'stlik, axloqiylik, ornомус, halollik, mexnatsevarlik, mehr-oqibat kabi ko'nikmalarning ular tarbiyasida vujudga kelishi bilan bogliqdir.

### Foydalilanigan Adabiyotlar

1. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2000.
2. Inomova K.M. «Oilada bolalarning mahnaviy-axloqiy tarbiyasi» -Toshkent:
3. Musurmonova O. «Oila mahnaviyat-milliy g'urur». - Toshkent: O'qituvchi. 1999, - 200 b.
4. Ochilova M. Ochilova N. «O'qituvchi odobi». - Toshkent: O'qituvchi, 1993\7. - 136 b.
5. Jo'raev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T.: "O'qituvchi", 1994.
6. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T.: "O'qituvchi". 1994.